


NURJAHON AVAZOVA

# HAYRAT

*She'rlar*



TOSHKENT  
«ADIB» NASHRIYOTI  
2011

 *Nurjahon Avazova*

---

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ў)6

A21

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan nashrga  
tavsiya etilgan.*

**Avazova, Nurjahon.**

A21 **Hayrat:** she'rlar / N. Avazova. — T.: ADIB

nashriyoti, 2011. — 64 b.

ISBN 978-9943-317-46-8

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ў)6

ISBN 978-9943-317-46-8

© «ADIB» nashriyoti, 2011

© N. Avazova, 2011

## EZGU AN'ANA

Yurtimizning turli hududlarida yashab, she'r va hikoyalar mashq qilib kelayotgan, adabiyot ostonasiga o'zlarining ilk qadamlarini qo'yayotgan iqtidorli yoshlarimiz minglab topiladi. Bugun boshlovchi misralar yozib, tahririyatlarga yoki ustoz adiblar qoshiga iymajibgina borayotgan bu yigit-qizlar ertangi kunimizning taniqli yozuvchi va shoirlariga aylansa, ajab emas.

Muhtaram Yurtboshimizning "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli risolasida "agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak", degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida ta'kidlangani bejiz emas. Bugungi barcha g'amxo'rlik va e'tibor ana shu maqsad ro'yobiga qaratilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq yoshlar siyosati eng birlamchi masalalardan biriga aylandi. Mana, yigirma yildirki, ushbu muhim masala kun tartibidan tushgani yo'q. Aksincha, yildan yilga yoshlar qatlamiga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Shu ma'noda, o'tkir didli, badiiy saviyasi yuksak yosh ijodkorlarni tarbiyalash

uchun yaratilgan bugungi sharoitlarni hech bir davr bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Ana shu yuksak e'tibor samarasi o'laroq, o'tgan 2010 yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va "Ijod" jamoat fondi tomonidan bir guruh yosh shoir, yozuvchi, publisist va adabiyotshunoslarning ilk kitoblari nashr etilgani va barcha ta'lim muassasalariga bepul tarqatilganidan yurtdoshlarimiz yaxshi xabardor. Ezgu an'anaga aylanib ulgurgan "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida bu yil ham badiiy adabiyotning turli yo'nalishlarida ijod qilib kelayotgan iste'dodli yoshlarning ilk kitoblari nashrga tayyorlandi. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu ijodkorlar "Do'rmon" ijod uyida o'tkazilgan seminarlarda tanlab-saralab olindi, qo'lyozmalar o'sha joyning o'zida - ustoz va shogirdlik an'anasi asosida qiyomiga etkazildi.

Qo'lingizdagi mana shu kitob ham o'sha mashaqqatli va serzavq mehnatning mevasi, umidli yosh ijodkorning dastlabki qadamidir.

*RUHIM TAJALLISI*

**HAYRAT**

Gul to‘la gulzorga tashlayman qadam,  
Qalbmida eng toza tuyg‘ular yashar.  
Goho, unga ko‘zim tushgan dam  
Ezgu ishlar tomon yuragim shoshar.

Ko‘z o‘ngimda dunyo yashnaydi qayta,  
Charaqlab ketgandek bo‘lar atrofim.  
Yuksalib boraman nomini ayta,  
Shu damda ko‘klarga yetadi ohim.

Surating bunchalar kamolli, dilbar,  
Go‘yo Iso Masih nafasidek pok.  
Husningga tasadduq, qanchalar dil zor,  
Yusufiy har husn poying uzra xok.

Sollanib gulzorga tashlaysan qadam,  
Majnuntol ko‘yingda egar boshini.  
Men esa, hayratda turaman bu dam.  
Sendan yashirolmay ko‘zim yoshini.

## BU AYOL

Baxtsizman, deb yig‘lamadi u,  
Tashvishlarga ko‘ndi, tik turdi.  
Ko‘nglidagi orzularini  
Farzandlarin baxtida ko‘rdi.

U hayotga mag‘rur boqqancha,  
Senga yoshim ko‘rsatmam, dedi.  
Alamlarning bag‘rin yoqqancha  
Baxtdan baxtli bo‘lmoqchi edi.

Ta‘nalarga dosh bergan yurak  
Yig‘lamadi bormi deb panoh,  
Kimdir dedi: “Sevdim!.. Sen kerak..”  
Shu on yig‘lab yubordi nogoh.

## VAQT

Vaqt aslida bir purviqor tog‘,  
G‘urur bilan yo‘llar ochasan.  
Vaqt aslida kattakon so‘roq,  
Bu so‘roqdan qayga qochasan?



## NOMLADIM UL TUNNI LAYLATUL QADR

Hayot to'zonida umrim yo'qoldi,  
Hislar bo'ronida ko'nglim yo'qoldi.  
Yolg'iz o'zing qolding, bir o'zim qoldim,  
Ne qilay, avvalim, so'ngim yo'qoldi.

Nigohing tutgandi hayot iforin,  
Hayrat yoshlaridan ko'kardim qayta.  
Nomladim ul tunni Laylatul Qadr,  
Yuksala boshladim nomingni ayta.





## UNING IZLAGANI DIYDORDIR ASLI

Jonsarak ruhimning yarmi tanamda,  
Yarmi zamonlarga ulanib ketgan.  
Yarmi o'rtangancha g'amda, alamda,  
“Analhaq” so‘zining mag‘ziga yetgan.  
Yarmi ko‘z nurimda dunyo kuzatar,  
Yarmi shu dunyoni bo‘lar ikkiga.  
Yarmi arosatdan imon qo‘zg‘otar,  
Yarmi nafs, borliqni o‘zin mulkiga  
Qo‘shmoq ilinjida betin yonadi.  
Yarmi vijdon erur, kechib uyg‘onib,  
O‘zin qilmishidan mudom tonadi.  
Ichsa-da haqiqat suvin sipqorib,  
Yarmi ishq mulkida sargardon kezar.  
Yarmi ibodatga bog‘lamish belin,  
Yarmi o‘zligini dildan his etar.  
Yarmi sabolarga boy berar sirin.  
...Dunyoda hukmron mavjudlik sasi,  
Aslida mehrdan yaralgan odam,  
Uning izlagani diydordir asli,  
Tegrasida chorlab turibdi olam.

## **RUHIM OVOZINI HECH KIM ESHITMAS**

Hech kimning men bilan ishi yo‘q,  
Meni yo‘qlaydigan kishi yo‘q,  
Hamma odamlarning parvoyi falak,  
Ruhimning yashashga shundan hushi yo‘q.

Kimlardir umrini bezamoqda ham,  
Mish-mish, ig‘vo, hasadlar bilan.  
Ibodot qilsalar, ko‘kka boqarlar  
Yaratganga da‘vo va shartlar bilan.

Ba‘zan g‘iybat qilib, gap ham sotishar,  
Bundan ilgari ham yashab qo‘ygandek.  
U dunyo haqida va‘zlar aytishar,  
Jannat ne‘matini oshab qo‘ygandek.

Serg‘avg‘o muhitga sig‘mas yuragim,  
Ishq deya yuragi dog‘liq lolaman.  
Ruhim ovozini hech kim eshitmas,  
Hayronman, yo hali nodon bolaman.

## USTOZLARGA

Qo'llarimda jaranglar sozim,  
Bugun chindan yangroq ovozim,  
Ustoz pandi — bahorim, yozim  
Sizga ta'zim, sizlarga ta'zim.

O'gitingiz — kelajak darsi,  
Tashvishingiz — yuragim darzi.  
Sizni sevmoq hayotim qarzi,  
Sizga ta'zim, sizlarga ta'zim.



## **YURAGIMDA BAHOR NOZ UYQUDADIR...**

Yuragimda bahor noz uyqudadir,  
Umid ham qalbimda unmagan chechak.  
Hayotim xayolot fazolarida  
To'qiydi o'ziga sirli bir ertak.

Har soniya — go'zal tilsim darchasi,  
Asrorlar olami bag'rida pinhon.  
Mangulikka tomon yetaklaydi vaqt,  
Burchi shu, kechikish bilmaydi bir on.

Men esa o'ylayman burch tuyg'usini,  
Insoniyat qarzi — farzi nimadir.  
Nechun inson aqlin ezgulik emas,  
Goh qabih xayollar sudrab ketadir.

Men hanuz tushunarman, saodat nadir,  
Har bir saodatning yo'ldoshi kulfat.  
Bilmasman, qay qalbda topdim chin qadr,  
Sezdirmay nish sanchar men bilgan ulfat.

Nechun javob yo'qdir, savolim bisyor,  
Gungu—lol tabiat holiga hayron.  
Samo qovoq uyar, yog'ar pag'a qor,  
Men kabi dunyoning yuragi vayron.

Hayot oqliklarga o‘ralar bir zum,  
Betinim o‘ylardan charchagan zamon.  
Der menga: qor misol qalbingni pok qil,  
Savob shu, gunoh ne, o‘zingga ayon.

Dildan iztirobni quvmoq bo‘larman,  
Yig‘layman, yoshlarim yomg‘irga o‘xshar,  
Zamin der: qayg‘urma, azizim, quvon,  
Poyimga gullardan poyonдоз to‘shar.

Ha, hayot gullarga o‘ralar shu zum,  
Go‘yoki telbaga o‘xshaydi olam.  
Beg‘ubor qahqaha urar tabiat,  
O‘zi kim? Dunyo ne? Payqamas odam.

Bulutlar yig‘laydi ko‘z yoshin to‘kib,  
Samoda tugaydi eng so‘nggi bardosh.  
Toqati tog‘ bo‘lib, bag‘ri bo‘lib qon  
Adimi kuydira boshlaydi quyosh.

Vaqt shoshib kelgancha ona misoli  
Gullarni qaygadir yetaklab ketar,  
Ushbu dam bir inson gullagan umrin  
Boylikka boy berib, manzilga yetar.

## HAQIQAT MANZARALARI

Ko'ksimda tipirlar chalajon bir qush,  
Qismat qafasida beayov bandi.  
Shudir mudroq ruhim ko'rayotgan tush,  
Menmanmi afandi, dunyo afandi?

\* \* \*

Nurning jamolini sevganda kishi  
Izlanish, intilish bo'lar tashvishi.  
Oydin kechalarni bedor o'tkazar,  
Oy kabi zulmatni yoritar ishi.



\* \* \*

Osuda otganda tongimiz rohat,  
Imillab, goh shoshib o'tadi soat,  
Ertam ne kechishin bilmay, halakman,  
Taqdir peshonamga yozgandir ne xat?

\* \* \*

Otmagan tonglarning ifori menda,  
Kelmagan kunlarning diydori menda.  
Qancha nasihatlar havoga uchar,  
Vaqt degan ne'matning uvoli menda.



\* \* \*

Davron charxpalagi aylanar, ey yor,  
Odamzod hamisha bo'lmas baxtiyor.  
Bugun tashvish ichra qolgan esang, bil,  
Erta tole yo'ldosh, shodlik senga yor.

\* \* \*

Dunyo ayvonidan uzgan gulim – ishq,  
Olov daryosidan ichgan suvim – ishq.  
Qalbimni zamindan Arshga chorlagan,  
Oltin yol tulporim, oltin so'zim ishq.

\* \* \*

Har kimni tabib deb borib bo'lmaydi,  
Dil dardin har kimga yorib bo'lmaydi.  
Tun bilan kun aro hayot yaralgan,  
Tunni kun bilganga kim ham kulmaydi.

\* \* \*

Guldan ifor kutgil, ilondan zahar,  
Bulbuldan navo kut, sabodan xabar.  
Osmondan izlama, baxting zaminda,  
U seniki, tole yor bo'lsa agar.

\* \* \*

Bas, yetar. Ko'nglimga bermagin ozor,  
Seni ma'yus ko'rmoq — qalbim titrog'i.  
Bu dunyo — o'sha sen anglagan bozor,  
Undan baxt xarid qil, qalbim ardog'i.



## AZIZIM, SHE'R BO'LIB TO'KILDIM MEN HAM

Dunyo g'alviridan to'kildim men ham,  
Qismat bitigiga bitildim men ham.  
Dilimni yondirgan telba hislardan  
Ne baxtki, bir yo'la qutuldim men ham.

Yengildim, men uni yengdim nihoyat,  
Taqdir meni siylab, etdi inoyat,  
Ash'orlar bitmoqqa qanot bog'ladim,  
Adashsam, yo'ldoshim bo'ldi hidoyat.

Qaysi qalb zulmatin yoritdim oydek,  
Qaysi qalbga kulib keltirdim ko'klam.  
Qalbidam navolar toshganda soydek,  
Azizim, she'r bo'lib, to'kildim men ham.



## **TABIAT, RUHIMSAN — QALBIM DUNYOSI**

Tuyg'ular jilovin tuta olmadim,  
Mayli, o'ynayversin qayga ketardi.  
Axir shamol qancha asov bo'lmasin  
Dargohidan o'tib qayga yetardi.

Qirlarning bag'rida xayolga cho'mib,  
Qamrab olayapman tasavvurimga.  
Yo'q, asli men o'zim borliqqa do'nib  
Suvratim chiz dedim musavvirimga.

Tabiat, ruhimsan — qalbim dunyosi,  
Sen mening o'zimdan o'zimga mujda.  
Seni g'uborlardan asrasam toki  
Hayotimda sodir bo'lar mo'jiza.



## BILMADIM

Burch deya bosh egsang, kulsa ag'yorlar,  
Xiyonat qilsalar sevilgan yorlar,  
Goho, gunohsizga tikilsa dorlar,  
Bilmadim hayotning ma'nosi nima?

Fikrlar keladi miyangga g'ujg'on,  
Bari der: men to'g'ri, ko'zni och, uyg'on!  
Bir boqsang, bari chin, bir boqsang, yolg'on,  
Bilmadim hayotning ma'nosi nima?

Bosgan har qadaming qaysi yo'l sari,  
Qaysi manzil sari bu yo'llar bari.  
Dunyo hikmati ne? Bilmam, der qari,  
Bilmadim hayotning ma'nosi nima?

Har ishdan falsafa qidirib ko'rdim,  
Savob ishlar sari yuzimni burdim,  
Haqiqat oldida bosh egib turdim,  
Hayotim ma'no-mazmuni shumi?

Yashamoqning mangu qonuni shumi?

## **BU YOLG‘ON DUNYONING ROSTI BORMIKAN**

Bu yolg‘on dunyoning rosti bormikan?  
Pokdomon ekanmi, makr yormikan...  
Baxtim deb topganim qayg‘uzormikan,  
Bilolmay sarsonu hayrona o‘zim.

Hayotda goh nodon, goh shodon ko‘rdim,  
Ko‘ngil deb yurganni sargardon ko‘rdim.  
Baxt asli sarobdir, har zamon ko‘rdim,  
Anglolmay ko‘zlari giryona o‘zim.

Ayol zotin joni qirqta deydilar,  
Qirqi ham jabringdan to‘ydi, kuydilar.  
Qo‘sh ko‘zing qo‘sh jallod, bag‘rim o‘ydilar,  
Sen deb yona-yona vayrona o‘zim.



## BAXT BU

Baxt – bu orzularga yetmoqlik emas,  
Zero, orzularning karvoni uzun.  
Baxt – bu armonlarni tark etmoq emas,  
Armonlar qalbdagi abadiy tugun.

Gar tongda xotirjam uyg‘ona olsang,  
Tashvishlarni yengar shaxding alanga.  
Qaynoq hayot ichra shaxdam kirolsang,  
Bir surur yugursa butun tanangga.

Baxt shudir! Tashvishni yengib o‘tolsang,  
Savoblar etolsang, yayrab-kulolsang.  
Men seni shu go‘zal baxtla qutlayman,  
Sinovlar kelganda sobit turolsang.



## FAQAT MUHABBATNI AYLADIM YO‘LDOSH

Goh yo‘lda adashdim, goh aqlim shoshdi,  
Ko‘rib go‘zalligin yuragim toshdi.  
Qilgan xatolarim ko‘zimni ochdi,  
Dunyo bilan ko‘nglim ayladim dildosh.

Goh dilim tinglashga bitta hamdard yo‘q,  
To‘zon ham aytadi: menda bir gard yo‘q.  
Netay, do‘st bo‘lmoqqa bitta ham mard yo‘q,  
Ollohni do‘st bildim, Ollohni sirdosh.

Yashamoq kurashdan iborat ekan,  
Umr qumga bino imorat ekan,  
Har ne ezgulikka ishorat ekan,  
Sevgini do‘st bildim, imonni dildosh.

Bog‘imda bulbullar sayragan chog‘da,  
Hikmat ko‘rganimda har bir yaprog‘da,  
Qaydaman, tog‘dami va yoki bog‘da,  
Faqat muhabbatni ayladim yo‘ldosh.

## MEN TELBA, YO DUNYO TELBADIR ASLI

Telbaman, dunyoning vayronalari  
Ming tilda sirlashib, soʻzlaydi ertak.  
Koʻnglimning ming bitta darvozalari  
Lang ochiq, ularga chin mehmon kerak.

Men telba, yo dunyo telbadir asli,  
Zamonlar bagʻridan izlayman yoʻlim.  
Almashar dunyoning toʻrt sirli fasli,  
Tugʻilish, Ulgʻayish, Baxt hamda Oʻlim.

Men-chi, hayronaman yoʻlin yoʻqotgan,  
Chorlaydi toʻrt yondan toʻrt sirli kitob.  
Toʻrt tilda bitta yoʻl koʻrsatib, qotgan  
Aqlimni uygʻotmoq istashar shu tob.

Taqdir kitoblarin bir-bir varaqlab,  
Jonimga tengdosh, mos soʻz qidiraman.  
Topganda ul soʻzni, dunyodan toʻyib,  
Soʻngi libosimga boʻz qidiraman.

Men telba, yo dunyo telbadir asli.

*BEDOR QALB QO'SHIG'I*

**QALBIM QUYOSHI**

Shabnam yuzingizga chayar yuzini,  
Gullar iforini oladi sizdan.  
Nafis qaddingizga qarab, o'zgarib,  
Sarvlar tik turmoqni o'rganur zimdan.

Siz, dilning qatiga jo bo'lgan jahon,  
Suluvlar sarvari xurshidi tobon.  
Sizni ko'rmoq uchun jon ilhaq erur  
Har tong quyoshini kutgandek osmon.





## YUKSALISH

Yuragimda bir savol yashar,  
Yuragimda bir olov yashar.  
O'shal olov otashi nogoh  
Vujudimda lov-lov tutashar.

- Ol,- dedi, ishq sharobin ichdim,  
Dilimdagi tugunni yechdim.  
Ishqning o'tlig' daryosin kechdim,  
Botinimda zamonlar shoshar.

Ustixonim kuyib, kul bo'ldi,  
Gul dunyoim goho cho'l bo'ldi,  
Xokisor dil kimga qul bo'ldi,  
Manzili ne, qayerga shoshar?..

Ufq'larga tutashar ruhim,  
Osmonlarga tutashar ohim.  
Madad bo'lg'in o'zing, ilohim,  
Dilda tilsim sabosi esar.

Ruhim esa, nenidir sezar...

## MUHABBAT GULI

Borliqda hukmron mangu latofat,  
Almashib yonadi qancha fasllar.  
Muhabbatning jufti bo'lib sadoqat  
Yasharib boradi o'tib asrlar.

Gullarni sevaman, kunni sevaman,  
Sevaman mehnatdan kelsa rohatni.  
Arshim — ISHQ yuksalib boraveraman,  
Bulutlarga tashlab g'amu nafratni.

Asrayman dilimda muhabbat gulin,  
Parvarish etaman nihollarini.  
Ular o'rgatadi ezgulik yo'lin,  
Adashganlar bersin savollarini.



## FARZANDLARIM DADASIGA

Qahringiz toshdan qattiq,  
Mehringiz boldan shirin.  
Sizga etilgan tortiq  
Ishqim dilda yashirin.

Baxtu iqbolimizsiz,  
Dil sokin dunyongizda.  
Suyangan tog'imizsiz,  
Yashaymiz joningizda.

Farzandlar dadam desa,  
Ko'nglim ko'kla bo'ylashar.  
Soyangizda sohibim,  
Baxt ham biz bilan yashar.

Har tongni qarshilaymiz,  
Ko'ngil – olam quvonchda.  
Ko'ngilda yongan quyosh  
Kelajakka ishonch-da!

## **SIZNI DILIM YO‘QLAGACH**

Sizni yo‘qladi dilim, paymonalar to‘ldi-ku,  
Intiqu muhtojingiz lahzada ming o‘ldi-ku.  
Lahzalar ming yillarga kengayib ketib, ey voh,  
Keng jahon choh misoli tor zimiston bo‘ldi-ku.

Keling, ahvol so‘rgani, dardga darmon bo‘lgani,  
Bu telbavash holimga shohi Mashrab kuldi-ku.  
Nurafshon eting dilni, Nurjahon so‘rar shulni,  
Sizdan kutib bir sado jon aro nur so‘ndi-ku.



## KECHIRING

Dil vayron, aql hayron, sizni xafa qilibman,  
Ko‘zlarim har yon giryon, sizni xafa qilibman.  
Osmon qovog‘i soliq, dilginam g‘amga to‘liq,  
Kechirarmikan Xoliq? Sizni xafa qilibman.

Gullar yuzin ters burar, yuragim sekin urar,  
Ul havoni ko‘p ko‘rar, sizni xafa qilibman.  
Ko‘zlarimga bir qarang, chidab turibman arang,  
Boshginam chindan garang, sizni xafa qilibman.

Derlar dunyo go‘zal gul. Quhog‘iga qani yo‘l?  
Yonmasimdan bo‘lib kul, sizni xafa qilibman.  
Tashvishlar ko‘p bir boshda, aqlsizman shu yoshda,  
Hech kim demas “bu yosh-da” sizni xafa qilibman.

Arzandalik o‘tmaskan, singan ko‘ngil bitmaskan,  
Yomonni yer yutmaskan, sizni xafa qilibman.  
Kechirmaysiz, sezaman, yuragimni ezaman,  
O‘z-o‘zimdand bezaman, sizni xafa qilib man.

## YONOQLAR

Qip-qizil olovlanar  
Qirmiz olma — tovlanar.  
Buncha go‘zal tuzog‘i,  
G‘arib dillar ovlanar.

Ko‘rsang, bag‘ring o‘rtanar,  
Zulflar yuzga cho‘lg‘onar,  
Yuragingga cho‘g‘ tushib,  
Unda ilon to‘lg‘onar.

Qip-qizil olovlanar,  
Ol yuzda nur tovlanar.  
Go‘zal hatto tuzog‘i,  
Aqlu hushing ovlanar.



## SENSIZ

Umidim – ko‘zimda qalqib turgan yosh,  
Ey voh, bunchalar ham bo‘lding bag‘ritosh.  
Nahot yig‘lamoqdan o‘zga yo‘q iloj?  
Sensiz ko‘z yoshlarim selga aylandi,  
Boshga ofat bo‘ldi, do‘lga aylandi.

Bilsang dil mulkida to‘rt faslim eding,  
Nigohing – hoqonim, men taslim edim.  
Men asli yo‘q edim, sen aslim eding.  
Sensiz olovlarim kulga aylandi,  
Turmush musht tugilgan qo‘lga aylandi.

So‘nggi dam so‘z aytmay ketding, azizim,  
Gunohim nimaydi, jonim, lazizim,  
Zolimim, seni der ko‘ngli nafisim,  
Bag‘rim qaqrab yotgan cho‘lga aylandi,  
Armon adog‘i yo‘q yo‘lga aylandi.

Qayt endi, hayotim, yashayin men ham,  
Qayt endi, bayotim aytayin men ham,  
Rahm etgil, sayyodim, yayrayin men ham,  
Kelsang, sog‘inchlarim baxtga aylanar,  
Hazin kulbam oltin taxtga aylanar.

## ESINGDAMI?

Esingdami, gullarga to‘lib  
Ketgan edi o‘shanda zamin.  
Hayotimga quyoshdek kirib,  
Yoritganding ko‘ngil maxzanin.

Esingdami, dalli-devona  
Bo‘lganingcha, yozarding xatlar.  
Yonoqlarim lolazor bo‘lib,  
Javobiga yozardim baytlar.

Orzumizdek oppoq edi qish,  
Borlig‘u dil bir xil rang edi.  
Gulga to‘lib kelgan navbahor  
Qalbimizga hamohang edi.

Dil taftidan olgandek pardoz  
Olov bo‘lib kelar edi yoz.  
Ishq bog‘iga xazon kelgan kez,  
Esingdami, kelgan edi kuz.

Qaylardasan endi, yagonam,  
Oy ham ma‘yus bizni kuzatib.  
Tanish edik, bo‘ldik begona,  
Bu xatoni bo‘lmas tuzatib.



## HUVILLAB YOTIBDI YURAGING NEGA?

Men baxtin izlagan bitta sargardon,  
Nega nigohlaring men uchun bo‘m-bo‘sh?  
Huvillab yotibdi yuraging nega?  
Azizim, qaydasan? Samolardan tush!

Tiz cho‘kdim poyingga, sezdingmi, ey yor?  
Goh yig‘lab, goh kulib mehrimni berdim.  
Yoningda hajringda bo‘lsam-da abgor,  
Sevmasang, sezmasang nima ham derdim.

Nima ham der edim, qismat muqarrar,  
Nima ham der edi tolei zabun.  
Mahshar kuni seni izlab, yonadi  
Ko‘zlaringni yana uchratmoq uchun.



## SEZASANMI?

Ko'ngil visol istaydi,  
Sevgi izhor istaydi,  
Yonib, seni qo'msaydi,  
Yonishim sezasanmi?

Dilda hijron yig'laydi,  
Ohu fig'on yig'laydi,  
Jonim, ishon, yig'laydi,  
Xonishim sezasanmi?

Yor, sensiz dunyolardan,  
Ko'zga to'tiyolardan,  
Jamiki ziyolardan  
Tonishim sezasanmi?

Sezganda kelasanmi?



## QO'SHIQ

Nigohimda nurim bor,  
Mehrdek shuurim bor.  
Unutmang, g'ururim bor,  
Jonim sizga, jonim.

Gullardan ko'shk qurarman,  
Iforida yurarman,  
Shirin xayol surarman,  
Jonim sizga, jonim.

Mag'rurlik — devonalik,  
Bas, yetar begonalik!  
Ey, barno farg'onalik,  
Jonim sizga, jonim.



## SOG'INDIM

Kelgin, mehribonim, yuzing sog'indim,  
Kel, ko'zga surtgali izing sog'indim.  
G'am qushi ko'zimga inlar qurmoqda,  
Qorlarni eritsin so'zing, sog'indim!

Sog'indim! Sog'indim!! Sog'inib ketdim!!!  
Ishqning surati bor ko'zing sog'indim.  
Poyingga lolazor etib poyonoz  
O'zganimas, yolg'iz O'ZING sog'indim.

Kutganda kelmasang, ko'zga ilmasang,  
Zor yig'lab, zor yig'lab, o'zim sog'indim.  
Kimga arz qilardim dardim bilmasang,  
Yaratganga borar ro'zim sog'indim.



## MUHABBATGA

Qo'lim cho'z sam, osmon muhabbat,  
Yuraklarda armon muhabbat.  
Senga har ne oson, muhabbat,  
Kel, mening ham mehmonim bo'lg'in.

Qo'yosh bo'lib yorit kulbamni,  
Yurganmishsan kezib o'lkamni,  
Kutgim kelmas endi ko'klamni,  
Kelu tezroq mezbonim bo'lg'in.

Ta'rifingdan zabonim go'zal,  
Intiq etding, yuragim kasal,  
Peshvoz chiqib, bo'libman o'sal,  
G'amli kunda panohim bo'lg'in.

Senla boqdim, dunyo o'zgacha,  
Xayrlashma endi kuzgacha,  
Kirgunimcha toki yuzgacha  
O'zing, o'zing hamrohim bo'lg'in.

## **KEL ENDI SABRIMGA MUKOFOT BO'LIB**

Ko'zlarim xumori, qaylardasan, ayt,  
Ey, baxtim tumori, kel, ortingga qayt!  
Sensiz qiynaldim-ku, qara, qancha payt,  
Kel endi sabrimga mukofot bo'lib.

Oy bilan tonggacha sirlashgan tunim  
Derdim: ajratolmas bizlarni o'lim.  
Yuragimda sog'inch topgancha qo'nim,  
Ohim oyga yetar salovot bo'lib.

Qo'llarim uzatsam yetmas joydasan,  
Gohi xayolimda, gohi oydasan.  
Azizim, qaydasan, axir, qaydasan?  
Kel, notinch ruhimga xalovat bo'lib!

Ketding, ko'nolmadim mening sevgilim!



## SENI IZLAB TENTIR XAYOLIM

Zamin poyondoqdir gulchambar taqib,  
Quyosh boshim uzra to'kar zarini.  
Mayin yel sochlarim tortqilar sekin,  
Yaproqlar pichirlar dil izhorini.  
Ruhim tabiatning bu ehsoniga  
Mahzunu beparvo boqadi, hissiz.  
Ko'zlarim atrofga boqar jonsarak,  
Izlarman izlaring, topolmam, essiz.  
Sen yo'qsan, sen bilan ketgan bahorim,  
Qalbimni isitgan yozlarim ketgan.  
Seni izlab tentir xayolim,  
Ishonchimni yolg'izlik yutgan.  
Nahot, shuncha gunohim bordir,  
Tomirimda azoblar oqar.  
Qovjiragan umid bog'ida  
Hatto o'lim o'zini yoqar.  
Kelgin, xaloskorim,  
Bo'lma bag'ritosh.  
Sabo sendan keltirsin xabar,  
Qarg'ish olgan sevgi bog'ida  
Hayot kulib, uyg'onsin sahar.  
G'ururim qarshingda etgusi sajda,

Qilgan gunohlarin jazosi uchun.  
Seni ishqim ko'tarar boshga  
Muqaddas poyingning tavofi uchun.  
Yo'q, bu hol gunohim yuva olmaydi,  
Sen baridan buyuksan, buyuk!  
Men ruhimni topshirgum senga  
Hukmron bo'laqol, bo'laqol suyuk.





## HAJRING OLOVIDA YONADI BEDOR

Qismatning burjida seni etib yod,  
Ishqning mehrobida yuragim yig'lar.  
Istaydi sen bilan bo'lmoqni obod  
Lek, ilinj topolmay bag'rini tig'lar.

Hajring olovida yonadi bedor,  
Na ortga, na oldga bir qadam yo'l bor.  
Sen deya topgani alam va qayg'u,  
Uning bor bisoti nomus ila or.

Arosat bag'rida muallaq qolgan  
Qismatning burjida bir ko'ngil yig'lar,  
Hanuz uyg'otolmas, bardoshi tolgan,  
Aqlni quchoqlab matonat uxlar.

Yuraging uxlaydi bir qo'shiq bo'lib,  
Yoshlarim dengizi oqadi to'lib.

## MUHABBATING MUHTOJI O'ZIM!

Mehring bilan ko'nglimni yorit,  
Muhabbating muhtoji o'zim.  
Sehring bilan ko'z yoshim arit,  
Yuragingning gultoji o'zim.

Ko'zlarimda kunning havasi,  
So'zlarimda tongning nafasi.  
Nahot qalbing uyg'otolmaydi  
Yuragimning olovli sasi.

Muhabbating muhtoji o'zim!



**SENI DEB TOPGANIM BAXTMI,  
ALAMMI?**

Seni deb topganim baxtmi, alammi,  
Dildagi og'riq ne, eski yarammi,  
Bir umr g'arib dil senga qarammi,  
Bilmadim, yorijon, bila olmadim.

Yor, kimni sevasan, kimdan tonasan,  
Ne ishdan kul bo'lib, nedan yonasan,  
Jimlik dunyosidan qachon qonasan,  
Ko'ngil qulfing hanuz ocha olmadim.

Yillarning yo'liga bahor gul sochdi,  
Hijron uni yulib, yo'qlikka qochdi.  
Qalbda umid guli yana yuz ochdi,  
Taqdirning jumbog'in yecha olmadim.

Seni deb topganim baxtmi, alammi?

## SENINGDIRMAN

Har qadamda habib o'zing,  
Qalbim bemor, tabib o'zing,  
Farog'atga eltar So'zing,  
Seningdirman, seningdirman.

Sajdagohga yetdi boshim,  
To'xtatolmam ko'zda yoshim,  
Shunday damda bo'l sirdoshim,  
Seningdirman, seningdirman.

Seni dedim — obod bo'ldim,  
Goh unutib, barbod bo'ldim,  
Lavhing aro men yod bo'ldim,  
Seningdirman, seningdirman.

Qo'lla, derman, qodir Olloh,  
Ikki dunyo nodir Olloh,  
Ko'p gunohim bordir Olloh,  
Lek seningman, seningdirman.

Dil tubini nurga to'ldir,  
Imon degan durga to'ldir.  
Umrinni sururga to'ldir,  
Seningdirman, seningdirman.

## SEVASANMI?

Ruhim giryon, dil vayron,  
Ayt, meni sevasanmi?  
Holimga bo'lmay hayron  
Ayt, meni sevasanmi?

Joningga jo bo'lgim bor,  
Seni deya o'lgim bor.  
Lablarimda kulgum bor,  
Ayt, meni sevasanmi?

Oydek to'lay bag'ringda,  
Mayli, o'lay qahringda.  
Kaniz bo'lay shahringda,  
Ayt, meni sevasanmi?

Xaridorim bo'l o'zing,  
So'ldi, qara gulyuzing.  
Xaloskorim bir o'zing,  
Ayt, meni sevasanmi?

Bir sevgi hayotimdir,  
Kuylasam bayotimdir.  
Topgan bor bisotimdir,  
Ayt, meni sevasanmi?

Qayt, meni sevasanmi?

## **JONIM, HAYOTINGGA MAZMUN ET MENI**

Sevgi – ko‘zlarimni ko‘r qilgan olov,  
Sevgi – sochlarimga tushgan oq qirov.  
Istamam sen uchun bo‘lmoqni birov,  
Jonim, hayotingga mazmun et meni.

Taqdirlar turfadir, tuyg‘ular turfa,  
Yig‘ilar turfadir, kulgular turfa.  
Yuragimni ezgan qutqular turfa,  
Jonim, hayotimga mazmun bit meni.

Umrim o‘tmoqdadir seni kutgancha,  
Yolg‘izlik qiynagan tunlarim qancha,  
Alamli hayotim tugab-bitguncha  
Sen sari ketyapman, jonim, kut meni.



## LABLARIMNI KUYDIRAR ISMING

Lablarimni kuydirar isming,  
Qarogʻimda ishqning quyoshi.  
Shaffoflashib ketmoqda jismim,  
Marvariddir koʻzimning yoshi.

Koʻzlaringda ishqning surati,  
Koʻzlarimda xumoriy jodu.  
Kel, baxtimiz sarhadlaridan  
Olam uzra taralsin yogʻdu.



## **UMRIM O'TAYOTIR QO'MSAYMAN SENI**

Sen ketding, nurafshon kunlarim qora,  
Quridi shodlikdek daryoi azim.  
To'zg'igan xayolot dunyosi aro  
Armonu qayg'ular qurishar bazm.

Ko'nglimga kuz keldi, hislar xazonrez,  
Umid daraxtini armonlar yoqar.  
Sabrim tugab borar sensiz, so'nggi kez  
Qayg'um ayriliqdan tumorlar taqar.

Sen ketding qay dilga bahoring boshlab,  
Dilim rashk o'tida kuyar, qovrilar.  
Hayotim yodingla qayta yaralib,  
Yana xayolingla yelga sovrilar.

Umrin o'tayotir qo'msayman seni,  
Chehrang, ovozingni unutilmayman.  
Garchi, so'liyotgan lola bo'lsam ham  
Sendan-da, o'zdan-da voz kecholmayman.



**QOR HAM EZIB  
YOG'MOQDA YANA**

O'tiribman ezilib, eslab,  
Qor ham ezib yog'moqda yana,  
Eslamaysan parizodingni,  
Qancha kunlar o'tibdi, qara.

Boqadirman ko'zguga ma'yus,  
Sen go'zalsan, degim keladi.  
U ham sensiz chekyapti afsus...  
Degim, o'zni sevgim keladi.

Unutolmay yondim, yolg'izim,  
Orzularim erir qor bo'lib.  
Kel, chorlayman hanuz yolvorib,  
Kutayapman intizor bo'lib.



## **BANDI DIL**

Tegramda gir aylanar dunyo,  
Gullar sarxush, sayrar bulbullar.  
Yo‘q, bu tushmas, emas bu ro‘yo,  
Rost, gullaydi bunda ko‘ngillar.

Bir go‘zallik kashf etib olam,  
Sabolar sho‘x salomlar eltar.  
Ko‘zdan oqar kavsariy jolam,  
Ilhom shirin kalomlar eltar.

Osmonimda gullar yulduzlar,  
Dunyo go‘yo sehrli qo‘shiq.  
Tilsimotga do‘nar kunduzlar,  
Aqlu ko‘ngil do‘st — yo‘l beto‘siq.

Tilsimotni parchalab go‘yo,  
Tegramda gir aylanar dunyo.  
Muhabbatga bandi bo‘lsa dil  
Olam to‘la, dil to‘la ziyo.

## TONGGI MADHIYA

Yana tong otdi!  
Beg'ubor, musaffo.  
Bahor tongi!

Oldinda...  
Oldinda... butu-u-u-u-u-u-un Ku-u-u-u-un...  
Behad sehrli!  
Uni qanday ranglarga bo'yash,  
Bemisl,  
betakror,  
go'zal zeb berish  
Sening izmingda.

Yana tong otdi!  
O-o-o-o-o-op-poq qog'ozdek.  
Sen – uning rassomi,  
Turibsan qoshida,  
Qo'lingda qalam.  
Bit unga bugungi kun lavhasini!

\* \* \*

Orzularing olamcha bormi,  
Intilganing faqat DIYDORmi,  
Yashamoqning o‘zi go‘zaldir.  
Muammo tugundir,  
Yechimi – fursat.

Qoqilma,  
Egilma,  
Sira aldanma!  
O‘zingni sev!  
O‘zgalarni sev!  
Hayotni sev!  
Yashash go‘zal-a?

Sezmadingmi?..  
Qalbingga qara!



## ANGLASH BAXTI

### I

Samodan ongimga mujdalar yog‘ar,  
Ochilar ohista sirlar g‘unchasi.  
Dunyo maktub bitib, eshigim qoqar,  
Yulduzlar – sirli harf, oy – tugunchasi.

O, meni chorlaydi ishqning o‘lkasi,  
Eng ajib tuyg‘ular etganча sovg‘a.  
Yetmish bir tomirim hislar yo‘lkasi,  
Yurak iloh sari intilar olg‘a!

Qop-qora sochlarim bir-bir oqarib,  
Zulmatdan oydinlik topa boshlaydi.  
Yillarga berkingan yolg‘onlar arib,  
Haqning mo‘jizasi ko‘zim yoshlaydi.

Somon yo‘li menga sir aytar shu on,  
Har yulduz - sirli harf, oy - yorqin muhr.  
Men esa samoga boqarman hayron  
Bir sevgi chorlaydi, chorlar bir mehr.

Muqaddas tuproqqa peshonam qo‘yib,  
Samoga yukungum sarhushu behol.  
Yulduzlar yig‘laydi bu hisni tuyib,  
Vujudim — javobi jumboq bir savol.

## II

Osmon ko'zlarimga singib, yo'q bo'lar,  
Qirmizi gullari bag'rimga enib.  
Za'faron har giyoh dardimga do'nar,  
Yarim oy shoxiga qalbim ilinib.

Samoda sir to'la bir maktub bitgan  
Go'zalni ko'ray deb qalbimda firoq.  
Butun borlig'imni shu ISHQ zabt etgan,  
Yo'liga intilar men yurgan so'qmoq.

O, butun olamning mangu sarvari,  
Musaffo poklikka ibtido, mavjud!  
Mehru shuuringdir ko'nglim gavhari,  
Yodingsiz yuragim savdoyi Hud-hud.

Bu hisni tuymagan hali hech shoir,  
Kelmagan dunyoga men kabi mehmon.  
To'kkan yoshlarimdan tasbehlar tizib,  
Bugun O'ZLIGIMga qaytyapman, ishon!

Yana uyg'oniyapti qalbimda bahor,  
Endi begonadir g'amning chillasi.  
Umrim diydoringdan har dam umidvor,  
Sirli tuyuladi azon pallasi.

### III

Mo'jizang bag'rida yashayveraman,  
Har dam, har nafasim hijronga nuqta.  
Shu yolg'on umrni avrayveraman,  
Tanim shu zaminda, xayolim ko'kda.

Umr deb atalmish tilsimot bag'rin  
Kezgancha, ming hisga duchor bo'libman.  
Qo'limga jilvangdan tutib shamchiroq,  
O'zingdan O'ZINGni izlab yuribman.



## O'ZING QUYOSHIMSAN

Qalbimning musaffo buloqlaridek  
Jildirab ko'z ochgan go'zal muhabbat  
Faqat sening noming so'zlab oqadi,  
Go'zal muhabbating ruhimga madad.

Yo'lingga muntazir g'arib ostonam  
Muborak poyingla muqaddas, ulug'.  
Yoniq satrlarim — mening dilmomam,  
Sen sabab hayotim iforga to'liq.

Oллоhim kanizlik hadya etibdi,  
Kechir gunoh etsam, shohi jahonim.  
Tosh qalbim muz kabi erib ketibdi,  
O'zing quyoshimsan, baxtga posbonim.





## HUMOYUNGA

*(Endigina tetapoya qilayotgan o'g'lim Humoyun  
muvozanat saqlolmay nogoh qoqilib tushdi)*

Qo'llarimni tutib turibman,  
Qo'llaringni uzatgin sen ham.  
Kurashlardan bunyod dunyoda  
Qadding tik tut doimo, erkam.

Qalbidagi dunyoni beray,  
Mehrim tafti soching silasin.  
Qarog'imda tutay, ardoqlay,  
Tunda ochun baxting tilasin.

Qo'llarimni tutib turibman,  
Qo'llaringni uzatgin sen ham.  
Dunyo senla to'kisdir asli,  
Asli sensiz dunyo biri kam.



## **MENI HAM ESLAB QO‘Y NAVBAHOR FASLI**

Ey, do‘sti nodirim, o‘zing yaxshisan,  
Diydoringga ikki jahonim sadqa.  
Hayotim, xayolim, ko‘nglim naqshisan,  
Jahon na, ol, ruhi ravonim sadqa.

Muhabbat masofa tanlamas asli,  
Yuraginga mangu yaqinim mening.  
Meni ham eslab qo‘y navbahor fasli,  
Kunduzi quyoshdan yorqinim mening.

## **YUZ YIL ASLI BIR LAHZAGA TENG**

Yuz yil asli bir lahzaga teng,  
Dil qasridan topganman najot.  
So‘ngsiz maftuningga aylandim,  
Sarhushdirman jilvangdan, hayot!

Har nafasim – bir qadah sharob,  
Bu ne visol hijronlari yo‘q.  
Bag‘ringdaman o‘lgunimcha to,  
Bu ne baxtkim, ko‘ngil buncha to‘q.

## **TUSHLARIMGA KIRIB, UYG‘OT MENI HAM**

Oqqushlar baxtlilar ishq dengizida,  
Tushlarimga kirib, uyg‘ot meni ham.  
Hayot mujassamdir sevgi so‘zida,  
Uchgim kelsa, qanot bilay seni ham.

Tumanlar bag‘rida mudrab yotgan qush,  
Ovozing istaydi, jonim, ovozing.  
Yo‘qlikka mahkumdek bezovta, homush...  
Uyg‘otib yuborsin, chalaqol sozing!

## **QARA, BAHOR KELMISH OLAMGA YANA**

Qara, bahor kelmish olamga yana,  
Qirda qizg‘aldoqlar bir-bir ochilmish.  
Yana boychechaklar etmish tantana,  
Qaldirg‘och tush ko‘rmish, tushda lochinmish.

Samovot zaminga shaydo bir oshiq,  
Goh shodon kuladi, goh to‘kar ko‘z yosh.  
Atirgul g‘unchada asrar sir, oshiq —  
Hazilkash shabboda esar sho‘x, bebosh.

Gullardan boshiga chambarak taqib,  
Ko'm-ko'k maysalarga burkab o'zini,  
Zamin ham samoga ishva-la boqib,  
To'kkan yoshlariga yuvar yuzini.

Bunda tun bilan kun shahdidan tushmish,  
Ikkovi teng bo'lmish uzr so'rashib.  
Shu kun bayram bo'lib, Navro'z atalmish,  
Olam sovuq edi ular kurashib.

Bahor mehr fasli, muhabbat fasli,  
Har dilga ezgulik, sevinch, fayz kirar.  
Bahor ishq nuridan yaralgan asli,  
Go'zallik dillarga oshiyon qurar.



## MUNDARIJA

### RUHIM TAJALLISI

|  |    |
|--|----|
| Ezgu an'ana.....                           | 3  |
| Hayrat.....                                | 5  |
| Bu ayol.....                               | 6  |
| Vaqt.....                                  | 7  |
| Nomladim ul tunni Laylatul Qadr.....       | 8  |
| Uning izlagani diydordir asli.....         | 9  |
| Ruhim ovozini hech kim eshitmas.....       | 10 |
| Ustozlarga.....                            | 11 |
| Yuragimda bahor noz uyqudadir.....         | 12 |
| Haqiqat manzaralari.....                   | 14 |
| Azizim she'r bo'lib to'kildim men ham..... | 17 |
| Tabiat, ruhimsan — qalbim dunyosi.....     | 17 |
| Bilmadim.....                              | 20 |
| Bu yolg'on dunyoning rosti bormikan.....   | 21 |
| Baxt bu.....                               | 22 |
| Faqat muhabbatni ayladim yo'ldosh.....     | 22 |
| Men telba, yo dunyo telbadir asli.....     | 23 |

### BEDOR QALB QO'SHIG'I

|                     |    |
|---------------------|----|
| Qalbim quyoshi..... | 24 |
| Yuksalish.....      | 25 |

|                                       |    |
|---------------------------------------|----|
| Muhabbat guli.....                    | 26 |
| Farzandlarim dadasiga.....            | 27 |
| Sizni dilim yo‘qlagach.....           | 28 |
| Kechiring.....                        | 29 |
| Yonoqlar.....                         | 30 |
| Sensiz.....                           | 31 |
| Esingdami.....                        | 32 |
| Huvillab yotibdi yuraging nega.....   | 33 |
| Sezasanmi.....                        | 34 |
| Qo‘shiq.....                          | 35 |
| Sog‘indim.....                        | 36 |
| Muhabbatga.....                       | 37 |
| Kel endi sabringa mukofot bo‘lib..... | 38 |
| Seni izlab tentir xayolim.....        | 39 |
| Hajring olovida yonadi bedor.....     | 41 |
| Muhabbating muhtoji o‘zim.....        | 42 |
| Seni deb topganim baxtmi, alammi..... | 43 |
| Seningdirman.....                     | 41 |
| Sevasanmi.....                        | 45 |
| Jonim, hayotingga mazmun et meni..... | 46 |
| Lablarimni kuydirar isming.....       | 47 |
| Umrin o‘tayotir qo‘msayman seni.....  | 48 |
| Qor ham ezib yog‘moqda yana.....      | 49 |
| Bandi dil.....                        | 50 |

## **IQROR**

|   |    |
|---|----|
| Tonggi madhiya .....                    | 51 |
| Anglash baxti.....                      | 53 |
| O'zing quyoshimsan.....                 | 56 |
| Humoyunga.....                          | 57 |
| Meni ham eslab qo'y navbahor fasli..... | 58 |
| Yuz yil asli bir lahzaga teng.....      | 58 |
| Tushlarimga kirib, uyg'ot meni ham..... | 59 |
| Qara, bahor kelmish olamga yana.....    | 59 |

NURJAHON AVAZOVA

**HAYRAT**

*She'rlar*

Muharrir: *Nosirjon Jo'rayev*

Rassom: *Nazokat Boltaboyeva*

Badiiy muharrir: *Iqbol Abdurazzoqova*

Texnik muharrir: *Nodir Suvonov*

Nashriyot litsenziyasi № 181. 08.12.11.

Terishga 16.09.2011 da berildi. Bosishga ruxsat  
02.12.2011 da berildi. Bichimi 70x90 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Ofset bosma  
usulida bosildi. «Acade my» garniturası. Shartli b.t. 2,34.

Nashr-hisob t. 2,14. Adadi 20.000 nusxa.

Buyurtma № 11-870

«ADIB» nashriyotida tayyorlandi.

100027. Toshkent. O'zbekiston ko'chasi, 16-uy

Tel: (8371) 245-89-24.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida  
chop etildi. 100129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30.